



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4/2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Rayhona Sadriddinova Amriddinova, Shaxrizoda Xolmirzaeva Mehmonxonada sifatni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish	148
Мохигул Эркиновна Ахтамова Управление бизнесом в Республике Узбекистан и пути её совершенствования	150
Бахтиёр Васиевич Насимов Идентификация основных проблем и вызовов, связанных с управлением производственными запасами	156
Qobiljon Qaxramon o'g'li Shodmonov Sanoat korxonalarini boshqaruvi samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	162
Muxabbat Sameyevna Sharipova Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida boshqaruvning strategik vazifalari	166
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Зухур Давронович Ниёзов, Шухратжон Зухурович Давронов Иқтисодийда молиявий ресурсларни кўпайтириш	173
Азиза Махомадризовна Каримова, Ориф Шакирович Максудов Анализ предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан	179
Sanjar Jaloliddin o'g'li Abdusaidov Sug'urta korxonalarida MHSni qo'llashning muammo va yechimlari	184
Pyos Pkhovich Ayubov, Muhriddin Ixtiyor o'g'li Ergashev Valyuta bozori tahlili va uni erkinlashtirish yo'llari	189
Зафаржон Яшинович Рахманов Тижорат банклари фаолиятида трансформацион жараёнлар: муаммо ва ечимлар	192
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Nodirbek Xurshid o'g'li Berdiqobilov Korxonalarda xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish	199
Саёхат Зафаровна Зарипова Ведение учета основных средств на основе международных стандартов бухгалтерского учета	203
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Sohiba Sirojiddinova Kamolova, Mohigul Xudoyberdi qizi Jamolova Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining imkoniyatlari	206
Ithom Begmatdulobovich Mattiyev Sog'lomlashtirish va dunyoqarash texnologiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati hamda funksiyalari.	209
Nigina Marupovna Usmanova, Sevinch Sobirjonovna Raxmonkulova Kadrlarni saqlab qolish strategiyalarini qo'llashda kadrlar siyosatining ahamiyati	213
ИБРАТЛИ БИТИКЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ўзимизга ўзимиз ташвиш орттирмайлик	218

<p style="text-align: center;">С.Камалова, М.Джамолова</p> <p style="text-align: center;">Возможности информационных технологий в образовательном процессе</p> <p>Аннотация. В данной статье изучается обучение студентов на основе современных информационных технологий, ознакомление их с новыми исследованиями в области информационных технологий, знание и использование активных методов обучения в процессе образования в Республике Узбекистан. В ходе исследования было проанализировано современное состояние, проблемы и перспективы информационных технологий. Также изучен опыт зарубежных стран в этой сфере и разработаны предложения по обеспечению развития интернет-услуг в национальной экономике.</p> <p>Ключевые слова: рынок интернет-услуг, национальная экономика, эффективность, совершенствование, цифровая трансформация, информационно-коммуникационные технологии, инновационное развитие, непрерывное образование, дистанционное образование.</p>	<p style="text-align: center;">S.Kamalova, M.Jamolova</p> <p style="text-align: center;">Opportunities of information technologies in the educational process</p> <p>Abstract. This article studies teaching students on the basis of modern information technologies, introducing them to new researches in the field of information technologies, knowing and using active methods of teaching in the process of education in the Republic of Uzbekistan. During the study, the current state, problems and prospects of information technologies were analyzed. Also, the experience of foreign countries in this field was studied, and proposals were developed to ensure the development of Internet services in the national economy.</p> <p>Keywords: Internet services market, national economy, efficiency, improvement, digital transformation, information and communication technologies, innovative development, continuous education, distance education.</p>
--	--

Iltom Begmatdulobovich Mattiyev – SamISI, “Tillarni o‘qitish” kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori

SOG‘LOMLASHTIRISH VA DUNYOQARASH TEXNOLOGIYASI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI HAMDA FUNKSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ommaviy sportni rivojlantirish orqali jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, yosh avlodni ma‘naviy jihatdan sog‘lom va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni Vatanga sadoqat ruhida shakllantirish, islohotlar doirasida yosh avlodni jismoniy va ma‘naviy jihatdan sog‘lom, har tomonlama barkamol insonlar sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida, barkamol shaxsni voyaga etkazish va hokozolar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: zamon talablari, rivojlantirish, sog‘lom avlodlar, sog‘lom turmush tarzi, muhofaza qilish, rivojlantirish, ta‘lim texnologiyalari, pedagogik ta‘lim, yondashuvlar, imkoniyatlar, dunyoqarash, jamiyat.

Kirish. 2020-yil 20-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatida jamiyatda sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish dolzarb yo‘nalishlardan biri ekanini ta‘kidladi. Shu bilan birga, sportni rivojlantirish va xalqaro musobaqalarda yuqori yutuqlarga erishgan sportchilarni qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratilishi qayd etildi [1].

Keyingi yillarda Respublikamizda ommaviy sportni rivojlantirish masalasi muhim ustuvorlikka aylangan. Bu yo‘nalishda sport infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy sport inshootlarini barpo etish va yoshlarni sportga jalb qilish orqali sog‘lom hayot tarzini keng targ‘ib qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yosh avlodni ma‘naviy jihatdan sog‘lom va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni Vatanga sadoqat ruhida shakllantirish esa o‘qituvchilar va mutaxassislar zimmasidagi asosiy mas‘uliyatli vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularga malakali murabbiylar tomonidan sifatli mashg‘ulotlar tashkil etish, xalqaro standartlarga mos musobaqalarni o‘tkazish orqali nafaqat sport yutuqlarini oshirish, balki mamlakatimizning xalqaro nufuzini yuksaltirishga erishish ko‘zda tutilgan.

Shunday qilib, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ommaviy sportni rivojlantirish orqali jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, har bir fuqaroning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli

amalga oshirishda o‘qituvchilar, murabbiylar va sohaga oid mutaxassislar o‘z bilim va tajribalarini safarbar qilmoqdalar.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida yosh avlodni jismoniy va ma’naviy jihatdan sog‘lom, har tomonlama barkamol insonlar sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu jarayonda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarga jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ommaviy sportni rivojlantirish sog‘lom jamiyatni shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Yuksak malakali kadrlar tayyorlashda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sport murabbiylarining chuqur bilim, professional ko‘nikma hamda ijodiy yondashuvga ega bo‘lishi muhimdir. Ularning tajribasi va mahorati yosh avlodning jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, organizmdagi moddalar almashinuv jarayoni bajarilayotgan ishning darajasiga mos ravishda shakllanib, insonning umumiy jismoniy va ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mustaqil O‘zbekistonning strategik maqsadlaridan biri – jamiyatda faol ishtirok etuvchi, jismoniy sog‘lom va ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ta’lim sohasida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zarur. Bunda ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish hamda ijodkorlik asosida o‘quv jarayonlarini tashkil etish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Kelajak avlodni har jihatdan yetuk, o‘z kasbining bilimdoni sifatida tarbiyalash uchun ta’lim va tarbiya jarayonlarini rejalashtirishda yangicha yondashuvlar qo‘llanishi lozim. Bu esa o‘qituvchilardan ijodiy fikrlash, tashabbuskorlik va zamon talablariga mos yondashuvni talab qiladi. Shu tariqa, mamlakatning taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan ma’naviy va jismoniy sog‘lom avlodni shakllantirishga mustahkam asos yaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagog olimlar A.Abduqodirov, U.Begimkulov, R.Djo‘rayev, X.Ibragimov, G.Ibragimova, M.Inomova, U.Inoyatov, A.Isimova, Z.Ismoilova, S.Yo‘ldosheva, U.Mahkamov, M.Mahmudova, A.Munavvarov, O.Musurmonova M.Quronov va boshqalar ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash masalalarini turli jihatlarini o‘rgangan.

M.Davletshin, V.Karimova, Z.Nishonova, N.Safayev, N.Sog‘inov, G‘.Shoumarov, E.G‘oziyev va boshqalar tomonidan yoshlar ta’lim-tarbiyasining psixologik jihatlarini, ular tarbiyasiga ijtimoiy muhit va jamoatchilikning psixologik ta’siri masalalari o‘rganilgan.

G‘arb davlatlari olimlari R.Banton, S.Germann, G.Makdonald, A.Skrivenlarning so‘nggi o‘n yillikdagi tadqiqotlari inson salomatligini muhofaza qilish pedagogikasini targ‘ib qilish, uning targ‘ibotini nazariy-amaliy xulosalar va bilimlar asosiga qurilishini ta’minlash, shuningdek, mavjud sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga doir o‘quv-ilmiiy manbalar, DTS dagi konseptual fikrlarni tahlil qilish, qarashlarni o‘rganish, analiz va sintez, pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, suhbat, modellashtirish, so‘rovnomalalar o‘tkazish, monitoring, intervyu, test, pedagogik tajriba-sinov, analitik obzor, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Salomatlik inson hayotidagi eng muhim boyliklardan biri bo‘lib, u shaxsning biologik va ijtimoiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omilidir. Sog‘liqni mustahkamlash va uni uzoq muddat saqlab qolish har bir insonning o‘zini anglash jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, salomatlikni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar va texnologiyalar zamonaviy jamiyatning dolzarb masalalaridan biridir.

Bugungi kunda sog‘lomlashtirish texnologiyalari inson jismoniy salomatligini asrash va mustahkamlash uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu texnologiyalar avvalo jismoniy madaniyat orqali amalga oshirilib, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Jismoniy mashqlar va sportning turli shakllari sog‘lomlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismlari bo‘lib, ular inson organizmining ichki imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Jismoniy madaniyatning tarkibiy qismlari – sport, asosiy jismoniy tarbiya, kasbiy-amaliy

jismoniy tayyorgarlik va sog‘lomlashtirish faoliyatlari – sog‘liqni saqlash va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda zamonaviy texnologiyalar va yangi texnik vositalar yordamida sog‘liqni saqlash sohasida innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Bu jarayon maxsus tashkil etilgan, samarali faoliyatni talab qiladi, chunki sog‘liqni tiklash va uni saqlashda zamonaviy vositalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Sog‘lomlashtirish faoliyatining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

Har bir shaxsni o‘z organizmining imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga da’vat etish;

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va bu borada individual mas’uliyatni oshirish;

Kelajak avlodning salomatligini himoya qilish va sog‘lom hayot kechirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

Uzoq umr ko‘rish va jismoniy salomatlikni mustahkamlashga ko‘maklashish.

Shu bilan birga, sog‘lomlashtirish jarayonida nafaqat jismoniy mashqlar, balki insonning ruhiy holati, ovqatlanish tartibi, mehnat va dam olish rejimi kabi omillar ham hisobga olinadi. Bunda jismoniy madaniyatning qamrovini kengaytirish, aholini sog‘lom turmush tarziga jalb qilish, sport tadbirlari va sog‘lomlashtirish dasturlarini ommalashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, salomatlikni saqlash va mustahkamlash nafaqat har bir shaxs uchun, balki butun jamiyat uchun strategik ahamiyatga ega. Bu yo‘lda jismoniy madaniyatni rivojlantirish, innovatsion sog‘lomlashtirish texnologiyalaridan foydalanish va sog‘lom avlodni tarbiyalash kabi vazifalarni samarali amalga oshirish muhimdir.

Sog‘lom turmush tarzi – bu salomatlikni mustahkamlash, uni saqlash, kasalliklarning oldini olish va faol hayot davomiyligini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Bunda sog‘lomlashtirish texnologiyalaridan foydalanishning asosiy jihati shundaki, insonning yoshi, jinsi, jismoniy holati, mehnat va ta‘lim faoliyatidan kelib chiqqan holda, jismoniy yuklamalarni maqbul darajada optimallashtirish va shaxsiylashtirishga imkon beradi [6]. Ushbu texnologiyalar zamonaviy sog‘lomlashtirish faoliyatida keng qo‘llanilmoqda va ijtimoiy guruhlarining turli ehtiyojlariga moslashtirilgan holda samarali natijalar bermoqda.

Sog‘lomlashtirish texnologiyalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyati – yoshi, jinsi, mehnat va ta‘lim faoliyati, hamda salomatligini hisobga olgan holda, odamlarning jismoniy yukini optimallashtirish va shaxsiylashtirishning maqbul mexanizmidir. Sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lgan jismoniy tarbiya va sportning mazmuni va ularni turli ijtimoiy, yosh va jinsdagi guruhlarining ijtimoiy holatini yaxshilash uchun ulardan foydalanish usullari mavjud [7].

Ta‘kidlab o‘tilganidek, zamonaviy jamiyatda inson salomatligini muhofaza qilish amaliyoti juda keng tarqalmoqda [4]. Inson salomatligini asrash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, insonlarni sog‘lomlashtirish uchun zarur chora-tadbirlarni ko‘rish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda [7].

Islom dini, dunyodagi boshqa dinlar qatori, o‘z qadriyatlari va diniy normalari tizimida alohida e‘tiborni salomatlikni asrash tamoyillariga qaratadi [2][3]. Ta‘kidlangan sog‘lomlik va salomatlikni muhofaza qilish, uni asrash islomiy normalari Qur‘oni Karim, Hadislar, shariat talablari orqali musulmonlar ongi va tafakkuriga singdirilgan [2][3].

Sog‘lom turmush tarzi tamoyillari va shaxsiy javobgarlik Islom dini normalariga binoan, shaxsning salomatlikni asrashga bo‘lgan mas’uliyati nafaqat uning o‘ziga, balki jamiyatga nisbatan ham ahamiyatlidir. Bu normalar xizmat ko‘rsatish sohasidagi faoliyatda, iqtisodiy munosabatlarda va kundalik turmushda o‘z ifodasini topadi. Masalan, inson salomatligini saqlash va muhofaza qilishga qaratilgan qoidalar, halol oziq-ovqat iste‘moli, gigiyena qoidalariga rioya qilish va zararli odatlardan voz kechishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, jamiyatda sog‘lom muhit yaratish va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda sog‘lomlashtirish tamoyillari asosida tashkil qilingan faoliyat muhim rol o‘ynaydi.

Sog‘lom turmush tarzi va salomatlikni muhofaza qilish nafaqat davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi, balki jamiyatning har bir a‘zosi uchun strategik ahamiyatga ega vazifadir. Islom dinining tamoyillari ushbu maqsadni amalga oshirishda kuchli manba bo‘lib, insonlarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish, ularni ma‘naviy va axloqiy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiladi. Zamonaviy sog‘lomlashtirish texnologiyalari va islomiy qadriyatlarning uyg‘unligi orqali

jamiyatda sog‘lom avlodni tarbiyalash va umuman insoniyat farovonligini oshirish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Xulosa va takliflar. Sog‘lom turmush tarzi inson salomatligi va barqaror sog‘lomlashtirish masalalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u quyidagi asosiy funksiyalarni o‘z ichiga oladi: ta’limiy va rekreatsion funksiyalar.

Rekreatsiya sog‘lomlikni tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini anglatadi. Bu tizim asosan jismonan sog‘lom, ammo charchagan insonlarning farovonlik darajasini normallashtirish va samaradorligini qayta tiklash maqsadida amalga oshiriladigan sog‘lomlashtirish faoliyatini qamrab oladi. Rekreatsion jarayonlar dam olishning barcha turlarini, jumladan, faol va passiv dam olish usullarini o‘z ichiga oladi.

Sog‘lomlashtirish texnologiyalari esa inson faoliyati bilan bog‘liq tarkibiy qismlar orqali shakllanadi. Ular, bir tomondan, insonning salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan faoliyati natijasi sifatida qaralsa, boshqa tomondan, mavzuga oid qadriyatlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu texnologiyalar sog‘lom turmush tarziga amal qilish jarayonida yuzaga keladigan qulay tashkilotlar faoliyatini va sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq amaliyotni ifodalaydi.

Shuningdek, sog‘lomlashtirish texnologiyalari insonning salomatligini saqlash va mustahkamlashni maqsad qilgan faoliyat turi sifatida alohida samaradorlik modelini ham o‘z ichiga oladi. Bu model texnologiyalarning turli yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilishiga yordam beradi.

Mazkur tushunchalar zamonaviy sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan foydalanish ijtimoiy guruhlar salomatligini yaxshilash, jismoniy va ruhiy faoliyatni barqarorlashtirish, shuningdek, aholining umumiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Sog‘lomlashtirish texnologiyalaridan foydalanish, avvalo, inson salomatligini yaxshilashga va uni eng yuqori darajada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu jarayonda jismoniy mashqlarning barcha shakllari va turlari quyidagi maqsadlarni amalga oshirishi lozim:

Harakatning zaruriy hajmini ta’minlash orqali hipokinesiyani oldini olish;

Asosiy tana tizimlarining imkoniyatlarini kengaytirish va ularning funksional zaxiralarini oshirish;

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni takomillashtirish;

Organizmning zararli ekologik ta’sirlar va kasalliklarga nisbatan umumiy qarshiligini kuchaytirish.

Bu faoliyatning asosiy maqsadi — nafaqat jismoniy jihatdan sog‘lom hayot tarzini yaratish, balki insonning ish faoliyati va kundalik hayotidagi samaradorligini oshirishdir.

Sog‘lomlashtirish texnologiyalari esa insonning jismoniy va rekreatsion ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmui sifatida qaraladi. Ushbu texnologiyalarning mazmuni, avvalo, insonning harakatga bo‘lgan ehtiyoji va faol dam olishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu ehtiyojlarning to‘liq amalga oshirilishi quyidagi natijalarni ta’minlaydi:

Salomatlikni saqlash va mustahkamlash;

Yomon yashash sharoitlarida ham yuqori samaradorlikni ta’minlash;

Har qanday ish sharoitida hayotiy faoliyat samaradorligini oshirish.

Shu bois, sog‘lomlashtirish texnologiyalarining hayotiy ahamiyati, nafaqat insonning jismoniy salomatligini saqlash, balki uning psixologik va ijtimoiy farovonligini ham yaxshilashda namoyon bo‘ladi. Bu texnologiyalar insonning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlashga va uning umumiy hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.20.12.2020.www.president.uz.
2. Qur’oni Karim. O‘zbekcha tarjima. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2017.
3. Hadislar to‘plami. Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy. Toshkent: Movarounnahr, 2018.
4. Normurodov, M. “Zamonaviy jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish texnologiyalari.” Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2020.

5. G‘afurov, A. "Sog‘lom turmush tarzi: nazariya va amaliyot." Samarqand: Zarafshon, 2019.
6. Karimov, Sh. "Islomiy qadriyatlarda salomatlikni muhofaza qilish tamoyillari." Jurnal: "Ilm va Hayot," 2021, №3.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy tarbiya ommaviylikini oshirish to‘g‘risida”gi qarori. Qaror №PQ-5535, 2021-yil 30-oktabr.

И.Маттiev	I.Mattiev
<p style="text-align: center;">Содержание и функции концепции «Технологии оздоровления и мировоззрения»</p> <p>Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы реализации позитивных изменений в обществе, которые являются приоритетными задачами, посредством пропаганды здорового образа жизни и развития массового спорта, воспитания подрастающего поколения как духовно здоровых и гармоничных личностей, формирования их в духе преданности Родине, и физического воспитания подрастающего поколения в рамках реформ духовно здоровыми, всесторонне развитыми личностями и т.д.</p> <p>Ключевые слова: современные требования, развитие, здоровое поколение, здоровый образ жизни, защита, охрана, развитие, образовательные технологии, педагогическое образование, подходы, возможности, мировоззрение, общество.</p>	<p style="text-align: center;">Contents and functions of the concept of "Health and Worldview Technologies"</p> <p>Abstract. This article examines the implementation of positive changes in society, which are priority tasks by promoting a healthy lifestyle and the development of mass sports, the upbringing of the younger generation as spiritually healthy and harmonic personalities, forming them in the spirit of devotion to the Motherland, and physical education of the younger generation within the reforms spiritually healthy, comprehensively developed by individuals, etc.</p> <p>Keywords: modern requirements, development, healthy generations, healthy lifestyle, protection, security, development, educational technology, pedagogical education, approaches, opportunities, worldview, society.</p>

Nigina Marupovna Usmanova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v.b. PhD

Sevinch Sobirjonovna Raxmonkulova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti IRB-122 guruh talabasi

KADRLARNI SAQLAB QOLISH STRATEGIYALARINI QO‘LLASHDA KADRLAR SIYOSATINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kadrlarni saqlab qolishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Bunda kadrlarni saqlab qolishning asosiy strategiyalari aniqlanib, kadrlar siyosatini ishlab chiqish uchun tashkilotda personalni baholash tizimining SWOT- tahlili o‘tkazilib, takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ish sharoitlari, raqobatbardosh maosh, imtiyozlar, malaka oshirish, ijtimoiy muhit, xodimlar fikri, mentorlik tizimi, motivatsiya, sadoqat, samaradorlik, xodimlarni baholash.

Kirish. Har qanday tashkilotning muvaffaqiyatida samarali bo‘lgan eng asosiy resurslardan biri inson resursi ekanligi shubhasizdir. Chunki, tashkilotlarning boshqa resurslari (moddiy resurslar, moliyaviy va h.k.) qanchalik ko‘p bo‘lmasin, ushbu resurslarni rejalashtiruvchi, tashkil etuvchi va ishlatadigan inson resurslari yetarli sifat va qobiliyatga ega bo‘lmasa, muvaffaqiyatga erishish ehtimoli past bo‘ladi. Shu navbatda, har qanday zamonaviy korxonaning samarali faoliyat yurtishida boshqaruv jarayonidagi asosiy vazifalaridan biri, yuqori malakali xodimlarni izlab topish, barcha xodimlarni yagona maqsad sari boshlash, ularni o‘z o‘rnida rag‘batlantirish, ruhlantirish va ularni birlashtirishdir. Bu jarayon ba‘zan bozor munosabatlarining o‘zgarish sharoitida tez sur‘atlar bilan amalga oshirilishini taqozo etadi. Milliy iqtisodiyotimizda bo‘layotgan innovatsion jarayonlar, avvalo, kadrlar siyosatida o‘zgarishlarni talab qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kadrlarni saqlab qolish strategiyalarini qo‘llashda kadrlar siyosatining ahamiyati haqida olimlarning fikrlari va tadqiqotlari ko‘plab ilmiy

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.